



# SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## SURXONDARYO VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2024-YIL YANVAR-NOYABR

# SURXONDARYO VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2024-yilning 1-dekabr holatiga Surxondaryo viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 2 079 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 510 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 24,5 % i Termiz shahrida joylashgan.

## 2024-yil 1-dekabr holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda



Termiz sh.	510
Termiz t.	172
Jarqo'rg'on t.	170
Denov t.	160
Sariosiyo t.	153
Boysun t.	131
Qumqo'rg'on t.	123
Angor t.	110
Sho'rchi t.	95
Qiziriq t.	92
Muzrabot t.	85
Sherobod t.	85
Oltinsoy t.	72
Uzun t.	67
Bandixon t.	54

1 172

454

453

Bino va inshootlar qurilishi





Fuqarolik obyektlarini qurish

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Shuningdek, Termiz tumanida – 172 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 8,3 %), Jarqo'rg'on tumanida 170 ta (8,2 %) qurilish korxonalarini mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

## Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-noyabr uchun)

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida, Surxondaryo viloyatida jami 10 495,8 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 107,3 % ni tashkil etdi.



Oldingi yilning mos davriga nisbatan



*Maʼlumot uchun: qurilish faoliyati bu – oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.*



## 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida Surxondaryo viloyatida qurilish ishlari \*

**Hududlarning hajmi va 2023-yilning mos davriga nisbati,  
mlrd so‘m va foizda**

	Qurilish ishlari, mlrd so‘m *	O‘shish sur‘ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	10 495,8	107,3	100,0
Termiz sh.	2 520,3	108,2	24,0
tumanlar:			
Oltinsoy	148,3	97,8	1,4
Angor	278,9	105,8	2,7
Bandixon	125,4	102,2	1,2
Boysun	500,9	109,3	4,8
Muzrabot	235,5	104,4	2,2
Denov	701,4	107,9	6,7
Jarqo‘rg‘on	432,2	111,4	4,1
Qumqo‘rg‘on	259,5	106,3	2,5
Qiziriq	187,5	104,2	1,8
Sariosiyo	728,2	103,6	6,9
Termiz	554,7	103,4	5,3
Uzun	146,7	107,8	1,4
Sherobod	343,3	109,6	3,3
Sho‘rchi	177,1	98,5	1,7


**)\* hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda**

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida hududlar kesimida xususan, Termiz shahri (2 520,3 mlrd so‘m), Denov tumani (701,4 mlrd so‘m) va Sariosiyo tumanida (728,2 mlrd so‘m) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

## 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida Surxondaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 76,4 % ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 112,5 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 18,1 % ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 88,1 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 5,5 % ulushni va 2023-yilning mos davriga nisbatan 136,1 % ni tashkil etdi.



**Qurilish ishlari hajmiga** yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

# 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi


Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 77,5 % i yoki 8 139,1 mlrd so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**774,7** mlrd so‘m Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 774,7 mlrd so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 9,5 % ni tashkil etdi.

**3 868,3** mlrd so‘m Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 3 868,3 mlrd so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 47,5 % ni tashkil etdi.

**3 496,1** mlrd so‘m Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 3 496,1 mlrd so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 43,0 % ni tashkil etdi.


## Yillar kesimida yangi qurilishning hajmi va ulushi



# 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

*Korxonalar turlari bo'yicha*

**Jami bino va inshootlarni qurish – 8 014,8 mlrd so'm**



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)”ga muvofiq **“Qurilish” faoliyati bo‘yicha “faoliyat turi bo‘yicha o‘z kuchi bilan amalga oshirilgan ishlar hajmi”** ko‘rsatkichi qo‘llaniladi..

Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 2,6 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davridagi ko‘rsatkichga nisbatan 1,7 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2023-yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 4,2 % punktga ko‘payib, 47,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023-yilning mos davriga nisbatan 2,5 % punktga kamayib, 50,3 % ni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida fuqarolik  
obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari  
*Korxonalar turlari bo'yicha*

Fuqarolik obyektlarini qurish, **1 895,3 mlrd so'm**



**Fuqarolik obyektlari qurilishiga** avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, truboprovodlar va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 38,5 % ni tashkil etdi va 2023-yilning mos davriga nisbatan 18,7 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 61,5 % (18,7 % punktga kamayish).



# 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

## Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, **585,7 mlrd so'm**




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 2,2 % punktga kamaydi va 7,0 % ni tashkil etdi. Qolgan 93,0 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 2,2 % punktga ko'paydi.

# 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari


## Qurilish ishlari \* hajmining tarkibi, mlrd so'mda



)\* hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

### Jami hajmga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**126,8 %**



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**106,0 %**




Norasmiy sektor

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**105,0 %**

# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 977,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 126,8 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 1,3 % ga ko'payib, 9,3 % ni tashkil etdi.

**Xo'jalik usulida** bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.



# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari \*

## Hududlarning hajmi \*, mlrd soʻmda



)\* hududlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

## Jamiga nisbatan ulushi



Sariosiyo tumani



Termiz shahri




Muzrabot tumani

Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Termiz shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 3,2 % i), Sariosiyo tumani (40,6 % ) va Muzrabot tumanida (13,5 %) qayd etildi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi




2024-yilning yanvar-noyabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 52,3 % i to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 1,0 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 106,0 % ni tashkil etgan holda 5 486,4 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.



# 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar \*

Hududlarning hajmi \*, mlrd so'm



)\* hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



2 342,8  
mlrd so'm

Termiz shahri



401,1 mlrd  
so'm

Denov tumani




337,6  
mlrd so'm

Boysun tumani

*Ma'lumot uchun:* ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Termiz shahrida (2 342,8 mlrd so'm), Denov tumanida (401,1 mlrd so'm) va Boysun tumanida (337,6 mlrd so'm) qayd etildi.

# 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

## Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi



Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 38,4 % ni yoki 4 032,1 mlrd soʻmni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 105,0 % ni tashkil etdi. Shundan 3 189,3 mlrd soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 107,5 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 306,9 mlrd soʻmni va 85,2 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 535,9 mlrd soʻmni va 104,9 % ni tashkil etdi.



# 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor \*

Hududlarning hajmi \*, mlrd soʻmda

## Surxondaryo viloyati

Termiz sh.	101,0
Oltinsoy	40,9
Angor	115,5
Bandixon	47,5
Boysun	145,8
Muzrabot	133,3
Denov	272,8
Jarqoʻrgʻon	176,4
Qumqoʻrgʻon	112,9
Qiziriq	53,8
Sariosiyo	226,1
Termiz	138,6
Uzun	50,3
Sherobod	223,8
Shoʻrchi	70,8

4032,1

)\* hududlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



**272,8** mlrd soʻm  
Denov tumani



**226,1** mlrd soʻm  
Sariosiyo tumani




**145,8** mlrd soʻm  
Boysun tumani

*Maʼlumot uchun:* koʻrib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Denov tumanida (272,8 mlrd soʻm), Sariosiyo tumanida (226,1 mlrd soʻm) va Boysun tumanida (145,8 mlrd soʻm) qayd etildi.




# Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar-noyabr oylaridagi hajm, mlrd so'mda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 306,7 mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 10 189,1 mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 2,9 % va 97,1 % ni tashkil etdi.



**Ma'lumot uchun:** nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Oltinsoy tumanida (ushbu viloyatdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 95,2 % i), Angor tumanida (qurilish ishlari umumiy hajmining 92,0 % i) va Boysun tumanida (ushbu viloyatdagi umumiy qurilish ishlarining 96,5 % i) qayd etildi.

## **Qurilish ishlari**

### **USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR**

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari maydoni rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

**Kapital qurilishga pudrat shartnomasi** – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

**Qurilish tashkilotlariga** – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlari kiritiladi.

**Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi**  
**Tel. 76 225-65-59 (7520)**